ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 29 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**

**Umarova H.O‘. – *O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi***

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**

**Karimova E'zoza Gapirjanovna – *Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori***

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – *Pedagogika fanlari doktori, professor***

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***

***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O‘. – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri***
***Qirg‘izboyev A.K – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q.M - iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. - falsafa fanlari doktori professor***
***G‘afurov D.O. - falsafa fanlari doktori (PhD)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. - pedogogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. - falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O‘zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A.T. - Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti kafedra professori***
***Ashurov R.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M.A - Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N.A - Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, bilogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
*Umarova H.O‘. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*
**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
***Karimova E’zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekista***
***Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O‘. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
*Qirg‘izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences,Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor***
***Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers “Yangi Uzbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics***
***Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology***
***Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha; OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y ,№11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y , №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y , №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y , №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y , №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y , №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669245** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

HAYOTIY MAZMUNNI MO'LJALGA OLISH TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY QADRIYATLARNI BELGILOVCHI MEZON SIFATIDA.......... 10
**Xayrullaeva Zebiniso Toxirovna**
OITS BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HOLATI DIAGNOSTIKASI..........14
**Rajabova Umida Ubaydulloyevna**
O'SMIRLARDA YOLG'IZLIK HISSINING IFODALANISHI:IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLIL..........20
**Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna**

# HAYOTIY MAZMUNNI MOʻLJALGA OLISH TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY QADRIYATLARNI BELGILOVCHI MEZON SIFATIDA

**Xayrullaeva Zebiniso Toxirovna**
Oʻzbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Maqolada talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishiga hayotiy mazmunni moʻljalga olishning ta'siri masalalari oʻrganilgan. Dastavval hayotiy mazmunni moʻljalga olish tushunchasining mazmuni hamda bu borada xorijiy olimlarning nazariy yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, talaba shaxsida hayotiy qadriyatlar shakllanishiga hayotiy mazmunni moʻljalga olishning empirik tasiri yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** talabalik davri; hayotiy mazmunni moʻljalga olish; hayotiy qadriyat; hayotiy maqsad; jarayon; natija; "Men"ni nazorat qilish; hayotni nazorat qilish; sogʻliq; moddiy ta'minot; ijod; oila; karera; xizmat; shon-sharaf; dam olish.

**Abstract.** The article examines the influence of focusing on life's meaning on the formation of life values during the student period. First, it describes the concept of focusing on the meaning of life and analyzes foreign scholars' theoretical approaches. Then it empirically demonstrates how this focus shapes the life values of a student's personality.

**Key words:** student period; focusing on the meaning of life; life values; life goal; process; result; self-control; life control; health; material security; creativity; family; career; service; glory; recreation.

**Аннотация.** В статье рассматривается влияние ориентации на жизненный смысл на формирование жизненных ценностей в студенческий период. Сначала изложено содержание понятия «ориентация на жизненный смысл» и проведён анализ теоретических подходов зарубежных учёных. Затем с эмпирической точки зрения освещено влияние ориентации на жизненный смысл на формирование жизненных ценностей личности студента.

**Ключевые слова:** студенческий период; ориентация на смысл жизни; жизненные ценности; жизненная цель; процесс; результат; контроль «Я»; контроль жизни; здоровье; материальное обеспечение; творчество; семья; карьера; служба; слава; отдых.

## KIRISH

Turli sohalardagi boʻlajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda hayotiy mazmunni moʻljalga olish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogika boʻyicha oliy ta'lim muassasasi talabalarida esa bu masala yanada dolzarb boʻladi, chunki ularga kelajakda oʻquv jarayonida shaxsni shakllantirish va rivojlantirish kabi murakkab vazifa yuklatilgan. Talabalarning hayotda oʻz oʻrnini anglashi va hayotiy mazmunini moʻljalga olish koʻnikmalarini shakllantirish ularning kasbiy va shaxsiy yutuqlari uchun muhim shartdir.

Oliy ta'lim maskanida tahsil olish – shaxs hayotining muhim bosqichi boʻlib, uning barcha strukturaviy jihatlarini rivojlantiradi. Universitetga kirish paytida talabalar ma'lum darajada hayotiy mazmunni moʻljalga olishga ega boʻladi va shu asosda mutaxassislikni tanlaydi. Oʻqishni yakunlashga yaqin, talabalar koʻpincha oʻz yutuqlarini oʻtgan yillar bilan taqqoslab, hayotiy mazmun tuzilmasini yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ular jamiyatda oʻz oʻrnini aniqlashga yordam beradigan amaliy tajriba orttiradi.

Hayotiy mazmunni moʻljalga olish oliy ta'lim jarayonida talabaning dunyoqarashi va oʻz hayotiga boʻlgan munosabatini ifodalaydi. Bu jarayon kasbiy va shaxsiy maqsad hamda vazifalarni aniqlash, muhim qadriyatlarga e'tibor qaratish va boshqalar uchun yoʻl-yoʻriq beradi.

Hayotiy mazmunni moʻljalga olish – shaxs hayotning ma'nosini topish, maqsadli yoʻnalishga intilish

vektoridir. Bu holat hayotiy qadriyatlar bilan bog'lanib, joriy vazifalar va faoliyatni shakllantiradi hamda atrof-muhitga bo'lgan munosabat, xulq-atvor va xarakterga ta'sir qiladi.

Hayotiy mazmunni mo'ljalga olish nafaqat bitta maqsad yoki g'oya bilan cheklanib qolmaydi, balki kichik va katta mazmunlardan iborat murakkab iyerarxik tizimdir. U turli ma'no tuzilmalaridan tashkil topgan ko'p darajali va yaxlit tizimni anglatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D. A. Leontyev mazmuniy sohaning tuzilishini ko'rib chiqib, uni piramida shaklida taqdim etilishi mumkin bo'lgan mazmuniy boshqarishning uchta iyerarxik darajasiga ajratgan [8]. Ya'ni, bu shaxsning atrofdagi voqelik ob'ektlariga nisbatan munosabatining mazmunini sub'ektiv aks ettirishdir: ba'zi tashqi ob'ektlar shaxs uchun muhimroq bo'lib, boshqalari kamroq ahamiyat kasb etadi va ularga nisbatan ijobiy munosabat zaif ifodalanadi; uchinchi darajadagi ob'ektlar esa shaxsning ichki dunyosida namoyon bo'ladi.

Hayotiy mazmunni mo'ljalga olish shaxsning yetukligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, inson mustaqil ravishda atrof-muhit bilan uyg'un munosabatda yashay olishi hamda o'z hayotini boshqarib, xatti-harakatlari oqibatlari uchun javobgar bo'lishini bildiradi [6].

Hozirgi kunda yoshlar oldiga yangi sharoitlarga moslashgan ideallar, ustanovkalar, qadriyatlar va normalarning yangi tizimini shakllantirish bo'yicha alohida talablar qo'yilmoqda.

Hayot mazmunini mo'ljalga olish tuzilmasida bir qator tarkibiy qismlar mavjud bo'lib, ulardan biri – vaziyat jihati. Bu jihat hayotning maqbul mazmuni kontekstida turli vaziyatlarning ta'siri ostida mazmunlarning dinamik iyerarxiyasi mavjudligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, qulay hayot mazmunini mo'ljalga olish shakllangan qadriyatlar darajasi sifatida tushunilishi lozim: ular shaxsga hayot mazmunini amalga oshirish uchun haqiqiy vaziyatni hisobga olib, xatti-harakatlarini boshqarish va vaziyatni o'zgartirish qobiliyatini beradi.

Hayot mazmunini mo'ljalga olishning qulay komponenti yosh jihatini o'z ichiga oladi. Bu komponent insonning yosh davrini hisobga oladi: har bir yosh bosqichi mazmunni mo'ljalash jarayonida o'ziga xoslikka ega. Masalan, bolalik davrida mazmunning psixologik zaminiga asosiy zarba beriladi, biroq mazmunni mo'ljalash izlash davri emas [5].

Talabalik davri esa hayotning maqbul mazmunini izlashning faol bosqichidir. Ammo bu davrda hayot yo'lini va asosiy mazmunni tanlash bilim va tajriba etishmasligidan, ta'lim muassasalari yoshlarni ongli hayot yo'lini tanlashga yetarli darajada tayyorlamasligidan murakkablashadi [4].

E. S. Berberyan ta'kidlaganidek, talabalik davridagi qadriyatli va hayot mazmunini mo'ljalga olish xususiyati shundaki, shaxs asosan kasbiy faoliyatga yo'naltiriladi: kasb tanlaydi, rejalar tuzadi, mafkuralarga amal qiladi va o'z e'tiqodiga ega bo'ladi [2]. Psixologlar bu bosqichni "inqirozli" deb atashgan, chunki shaxs turli muqobil variantlar orasidan bitta aniq yo'nalishni belgilashi talab qilinadi [1].

L. V. Kosikova va Yu. V. Lyakh nazariyasiga ko'ra, hayot mazmunini mo'ljalga olish insonning mavjud holatlar, voqeliklar va vaziyatlarga adekvat munosabatini ta'minlashi, vaziyatlarning katta qismini inson o'z faoliyati jarayonida shakllantirishi, harakat oqibatlarini anglab oldindan ko'ra bilishi hamda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini nazarda tutadi [7].

Shaxsning barqarorligi noqulay sharoitlarda nafaqat passiv moslashuvchanlikni, balki faol o'zgarishlarni, hayotiy maqsadlarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Barqarorlik shaxsiy ehtiyojlar, qiziqishlar va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liqlikni bildiradi [3].

Shunday qilib, har bir yosh davri o'ziga xos xususiyatlar va mazmunli hayotiy yo'nalishlarni shakllantiradi. Hayot mazmunini mo'ljalga olish har doim mavjud sharoitlar, voqeliklar va vaziyatlarga mos kelishi, vaziyatlarning sezilarli qismini esa shaxs faoliyat jarayonida yaratishi lozim. Bunda mas'uliyat – harakat oqibatlarini anglash va oldindan ko'rish – muhim element hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumki, talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishi qisman hayotiy mazmunni mo'ljalash bilan bog'liqdir. Hayotiy qadriyatlarning rivojlanishi esa hayotiy mazmun, maqsad va tasavvur kabi komponentlarning faol o'sishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, talabalik davrida hayotiy mazmunni mo'ljalash va hayotiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun G.V. Rezapkinaning "Hayotiy qadriyatlar iyerarxiyasi" va D.A. Leontyevning "Shaxs hayot mazmunini mo'ljalash" metodikalari qo'llandi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari sifat va miqdor jihatidan tahlil qilinib, quyidagi jadvallar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jadval natijalariga ko'ra, sog'liq hayotiy maqsad bilan (r=0,57; p≤0,01), hayotni nazorat qilish bilan (r=0,37; p≤0,01), natija komponenti bilan (r=0,28; p≤0,05) hamda "Men"ni nazorat qilish lokusi bilan (r=0,23; p≤0,05) yuqori darajadagi ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlangan.

**1-jadval**
**Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar va hayotiy mazmunni mo'ljalga olish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xususiyatlari**

| Hayotiy qadriyatlarning tarkibiy qismlari | Hayotiy maqsad | Jarayon | Natija | "Men"ni nazorat qilish | Hayotni nazorat qilish |
|---|---|---|---|---|---|
| Sog'liq | 0,57** | 0,01 | 0,28* | 0,23* | 0,37** |
| Moddiy ta'minot | 0,50** | 0,40** | 0,48** | 0,40** | 0,39** |
| Ijodkorlik | 0,25* | 0,02 | 0,16 | 0,26* | 0,23* |
| Oila | 0,74** | 0,60** | 0,76** | 0,41** | 0,28* |
| Karera | 0,31** | 0,11 | 0,25* | 0,40** | 0,47** |
| Xizmat | 0,29* | 0,16 | 0,29** | 0,25* | 0,26* |
| Shon-sharaf | 0,38** | 0,004 | -0,24* | -0,33* | 0,08 |
| Dam olish | 0,50** | 0,16 | 0,02 | 0,25* | 0,05 |

Hayotiy maqsad – kelajakdagi hayotga mazmun, yo'nalish va vaqt istiqbolini belgilovchi maqsadlar darajasini tavsiflaydi.

Hayotni nazorat qilish – shaxsning o'z hayotini boshqarish, erkin qaror qabul qilish va ularni amalga oshirish qobiliyatiga ishonchini aks ettiradi.

"Men"ni nazorat qilish lokusi – shaxsning o'z kuchi va qobiliyatlariga bo'lgan ichki ishonchini bildiradi.

Natija komponenti – hayotning o'tgan qismini samarali va mazmunli deb baholashni tavsiflaydi.

Empirik tahlil shuni ko'rsatdiki, sog'liq komponenti jarayon (hayotiy jarayonni qiziqarli va mazmunli qabul qilish) bilan mustaqil bo'lib, unga ahamiyatli bog'liq emas.

Moddiy ta'minot esa hayotiy maqsad (r=0,50; p≤0,01), jarayon (r=0,40; p≤0,01), natija (r=0,48; p≤0,01), "Men"ni nazorat qilish (r=0,40; p≤0,01) va hayotni nazorat qilish (r=0,39; p≤0,01) bilan yuqori darajada korrelyatsiyalashgan. Bu talabalarning asosiy hayotiy maqsadi moddiy farovonlikka erishish ekanligini ko'rsatadi.

Ijodkorlik hayotiy maqsad (r=0,25; p≤0,05), "Men"ni nazorat qilish (r=0,25; p≤0,05) va hayotni nazorat qilish (r=0,23; p≤0,05) bilan ahamiyatli bog'liq, biroq jarayon va natija bilan mustaqil komponent hisoblanadi. Talabalik davrida ijodkorlikning ortishi shaxsning o'z "Men"ini va hayotini optimal nazorat qilishiga yordam beradi.

Oila qadri hayotiy maqsad (r=0,74; p≤0,01), jarayon (r=0,60; p≤0,01), natija (r=0,76; p≤0,01), "Men"ni nazorat qilish (r=0,41; p≤0,01) va hayotni nazorat qilish (r=0,28; p≤0,05) bilan mustahkam korrelyatsiyada. Talabalarning oilaga bo'lgan e'tibori ularning hayotiy maqsadlariga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Karera qadri hayotiy maqsad (r=0,31; p≤0,01), "Men"ni nazorat qilish (r=0,40; p≤0,01), hayotni nazorat qilish (r=0,47; p≤0,01) va jarayon (r=0,36; p≤0,05) bilan ahamiyatli bog'liq, biroq natija bilan mustaqil. Bu talabalar kasbiy faoliyatda erishiladigan yutuqlarni o'z "Men"i va hayotiy qarorlari bilan bog'lashishini anglatadi.

Xizmat qadri hayotiy maqsad (r=0,29; p≤0,05), natija (r=0,29; p≤0,01), "Men"ni nazorat qilish (r=0,25; p≤0,05) va hayotni nazorat qilish (r=0,26; p≤0,05) bilan korrelyatsiyaga ega, biroq jarayon bilan mustaqil. Bu talabalarning xizmat faoliyatiga bo'lgan qiziqishi ularning shaxsiy nazorat va maqsadlariga mos kel-

ishini ko'rsatadi.

Shon-sharaf qadri hayotiy maqsad (r=0,38; p≤0,01), natija (r=–0,24; p≤0,05) va "Men"ni nazorat qilish (r=–0,33; p≤0,05) bilan ahamiyatli aloqada, biroq jarayon bilan mustaqil. Talabalar shon-sharafga intilganda o'zini o'zi anglash tizimi va hayotiy maqsadlarini qayta ko'rib chiqadi.

Dam olish qadri hayotiy maqsad (r=0,50; p≤0,01) va "Men"ni nazorat qilish (r=–0,25; p≤0,05) bilan bog'liq, ammo hayotni nazorat qilish, jarayon va natija bilan mustaqil hodisa sifatida ajralib turadi. Bu dam olishning talabalar "Men"ini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Keltirilgan natijalarga ko'ra, talabalik davrida hayotiy qadriyatlarni shakllanishi ulardagi hayotiy mazmunni mo'ljalga olish komponentlari bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligi qayd qilindi.

O'rganilgan nazariy yondavshuvlar va emperik tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

-talabalik davrida hayotiy qadriyatlar va hayotiy mazmunni mo'ljalga olish o'rtasida o'zaro ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi.

-talabalik davrida sog'liq ijodkorlik, oila, xizmat kabi hayotiy qadriyat hayotiy maqsad, jarayon natija kabi hayotiy mazmunni mo'ljalga olish bilan yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi.

-hayotiy qadriyatlardan kar'yera shon-sharaf dam olish kabi talabalik davrida hayotiy mazmunni mo'ljalga olish komponetlari bilan o'zaro differensional farqlar mavjudligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Андриевская С.В. Взаимосвязь смысложизненных ориентации и мотивации аффилиации у молодёжи / Научный поиск в современном мире сборник материалов XIII международной научно-практической конференции. М.: НИС «Апробация». 2016. С. 77-86.
2. Берберян А.С., Берберян Э.С. Исследование и развитие позитивной этнической идентичности на основе осознания смысложизненных ориентации у русских и армянских студентов. М.: Сборники конференции НИС Социосфера, 2016. - № 42. С. 5-13.
3. Борисов Ю.А., Кудрявцев И.А. Смысловая сфера сознания и самосознания успешных и неуспешных менеджеров среднего звена. - М.: Психологический журнал. – 2003. – Т. 24. – № 1. С. 91-103.
4. Голзиская А.А. Библиотерапия как подход к работе со смысложизненными ориентациями / Психологические проблемы смысла жизни. М.: Электронный сборник материалов XXI симпозиума. Под редакцией Г.А. Вайзер, Н.В. Киселниковой, Т.А. Поповой. 2016. С. 129-131.
5. Дробышева Т. Экономическая социализация личности. Ценностный подход. М.: Институт психологии РАН, 2013. 320 с.
6. Зиборова Е.И., Костина И.Б. Система жизненных ценностей менеджеров с разными смысложизненными ориентациями / Ценностное многообразие современной культуры Монография. Под общей редакцией И.Р. Камалиевой. М.: Эксмо, 2018. С. 264-286.
7. Косикова Л.В., Лях Ю.В. Особенности смысложизненных ориентаций безработной молодежи с различными факторами, препятствующими трудоустройству. М.: Психология обучения. 2016.- № 10. С. 122-128.
8. Леонтьев Д. А. Тест смысложизненных ориентации (СЖО). 2-е изд. М., 2000

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Sobit Qayumov

**2025. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.